

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR MILLIY
MARKAZI**

DON VA DUKKAKLI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

**GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARIGA CHIDAMLI,
HOSILDORLIGI VA SIFATI YUQORI BO‘LGAN BOSHOQLI
DON, DUKKAKLI, MOYLI, OZUQA EKINLARNI PARVARISHLASH
ISTIQBOLLARI**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2022-yil 13-may

**МИНИСТЕРСТВО СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР ЗНАНИЙ И ИННОВАЦИЙ В СЕЛЬСКОМ
ХОЗЯЙСТВЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ЗЕРНА И
ЗЕРНОБОБОВЫХ КУЛЬТУР**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ ЗЕРНОВЫХ, БОБОВЫХ,
МАСЛИЧНЫХ И КОРМОВЫХ КУЛЬТУР С
ВЫСОКОЙ УСТОЙЧИВОСТЬЮ К ГЛОБАЛЬНЫМ
КЛИМАТИЧЕСКИМ ИЗМЕНЕНИЯМ, УРОЖАЙНОСТЬЮ И
КАЧЕСТВОМ ЗЕРНА**

13 мая 2022 года

UO‘K: 633.1

KBK: 42.11

G-56

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi “Mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni samarali o‘tkazish maqsadida”gi 101 F-sonli Farmoyishiga asosan Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutida 2022-yil 13-may kuni o‘tkazilgan “Global iqlim o‘zgarishlariga chidamli, hosildorligi va sifati yuqori bo‘lgan boshqoqli don, dukkakli, moyli, ozuqa ekinlarni parvarishlash istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari matnlarida bayon etilgan.

Xalqaro konferensiya materiallari mamlakatimizning turli mintaqalarida boshqoqli don ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnikasini yangi innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari, dukkakli don ekinlar seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnikasini yangi innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish yo‘llari, moyli va noan’anaviy ekinlar seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnikasini yangi innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishni asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari hamda yangi ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga bag‘ishlangan.

Tashkiliy qo‘mita:

Rais: R.I.Siddiqov.

A‘zolari: T.Uraimov, I.Xoshimov, I.Egamov, T.Raximov, G‘.Mo‘ydinov.

Tahrir xay‘ati:

q.x.f.d., RFA akademigi R.I.Siddiqov, q.x.f.n., dotsent T.Uraimov, q.x.f.d., k.i.x. I.Xoshimov, q.x.f.d., k.i.x. I.Egamov, q.x.f.f.d., k.i.x. T.Raximov, q.x.f.n., k.i.x. A.Mo‘minov, q.x.f.f.d. N.Yusupov, Z.Yaqubov, Z.Yuldashev, I.Adashev, N.Karimov.

To‘plamga kiritilgan materiallardagi ma‘lumotlar to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardir. Ushbu to‘plam maqola mualliflari tahriri ostida chop etildi.

To‘plam Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2022-yil 20-maydagi 5-sonli yig‘ilish qaroriga asosan chop etildi.

ISBN: 978-9943-8363-0-3

© Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, 2022

© “Andijon nashriyot-matbaa”
MCH, 2022

Tajriba variantlaridan olingan natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, kungaboqar o'simligining o'sishi, rivojlanishi va urug' hosiliga ekish muddatlarining ta'siri sezilarli bo'lganligi kuzatildi.

Hulosa. Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlari sharoitida kungaboqarning "Dilbar" navini takroriy ekin sifatida ekib, yuqori va sifatli urug' hosili yetishtirish uchun urug'larni 20-iyun kunda 70x30-1 sxemada ekish, gektariga xaqiqiy ko'chat qalinligi 40,9 ming tupga yetib, amal davri oxirida bosh poya balandligi 203,5 sm, savatcha diometri 29,8 sm, urug' hosili esa 34,1 tsentnerni tashkil etishiga imkon yaratiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Atabaeva X.N., Umarov Z.U., Bo'riyev H.Ch va boshqalar. «O'simlikshunoslik». «Mehnat» nashriyoti, 2000 y. B. 235 – 238.
2. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B., Israilov I.A., Azizov B.M. "Em-xashak yetishtirish fanidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent-2011. 90-91.B.
3. Atabaeva X., Yuldasheva Z., Israilov I. "Agronomiya va yem-xashak yetishtirish". Toshkent "Iqtisod-Moliya"-2010. 153.B.
4. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. "O'simlikshunoslik". "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent-2018. B.321.
5. Atabaeva X.N., Yuldasheva Z.K. "Moyli ekinlar biologiyasining ilmiy asoslari va yetishtirishda innovatsion texnologiyalar" "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent-2019 B. 21-42.
6. Azizov T.B. «Moyli ekinlarni yetishtirish agrotexnologiyasi» O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent-2015. 88-89,91-93.b.
7. Abdulkarimov D.T., Xalilov N.X., Lukov M.Q., Yuldasheva Z.K va boshqalar. "Kungaboqar yetishtirish texnologiyasi bo'yicha fermerlar uchun tavsiyanoma", Toshkent-2019. B.11-14.

BUXORO VILOYATI SUG'ORILADIGAN TURLI DARAJADA SHO'RLANGAN TUPROQLARIDA RAPSNING BAHORGI NAVLARINI YETISHTIRISH AGROTEKNOLOGIYASINI O'RGANISH.

Axmedov Muhammadjon Ismatovich, q.x.f.n- direktor
Sharipov Odiljon Bafoyevich-b.f.b.f.d (PhD) Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha direktor muovini
Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti
Buxoro ilmiy tajriba stantsiyasi
Adolatova Shaxnoza Jumaqul qizi- magistr
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Buxoro viloyati sug'oriladigan turli darajada sho'rlangan tuproqlarida Rapsning bahorgi navlarini yetishtirish, o'simliklarning o'sish-rivojlanishi, hosildorligi va tuproq unumdorligiga ta'sirni o'rganishi.

Kalit so'lar: sho'rlanish, oziqaviy ahamiyat, to'yinmagan kislotalar, resurstejamkor agrotexnika, kaloriya, tuproq unumdorligi, urug'chilik, eksport.

Аннотация: Изучение влияния весеннего возделывания рапса на различные уровни орошения засоленных почв Бухарской области, рост растений, продуктивность и плодородие почвы.

Ключевые слова: засоление, питательность, ненасыщенные кислоты, ресурсосберегающая агротехника, калорийность, плодородие почвы, семеноводства, экспорт.

Abstract: Study of the influence of spring cultivation of rapeseed on various levels of irrigation of saline soils in the Bukhara region, plant growth, productivity and soil fertility.

Key words: salinity, nutritional value, unsaturated acids, resource-saving agricultural technology, calorie content, soil fertility, seed production, export.

FAO 2018-2020-yillarda 870 millionga yaqin odam to'yib ovqatlanmaslik holatlarini asoslanib ma'lum qildi. Bu dunyo aholisining 12,5 foizini yoki har 8 kishidan 1 nafarini tashkil qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar yuqori, bu yerda 852 million kishi (aholining taxminan 15%) surunkali to'yib ovqatlanmaydi.

Yangi o'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining 3-yo'nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning 30-maqsadi: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan.

Respublikamiz aholisini keng assortimentli arzon va sifatli o'simlik moyi bilan ta'minlash, yem-xashak yetishtirish, asalarichilikni rivojlantirish, tuproq unumdorligini saqlab qolish va oshirish, Rapsning urug'chiligini tashkil etish hamda yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tajriba maydoni tuproqlarning agrokimyoviy xossalari. Voha o'tloqi-allyuvial tuproqlarida gumus miqdori kesma bo'yicha asta- sekinlik bilan kamayib borib, haydalma qatlamda gumus miqdori 1,079 dan 1,489 % gacha, haydalma osti qatlamida 0,808 dan 1,026% ni, pastki qatlamalarda (71-80 sm) - 0,557-0,777 % gacha bo'lishi aniqlandi. Kesmaning quyi qismi(100-110 sm)da gumus miqdori 0,304-0,380 % ni tashkil qiladi. Voha o'tloqi-allyuvial tuproqlarida gumusli profil agroirrigatsion qatlam bilan korrelyativ bog'liqligi kuzatildi.

**Tadqiqot hududi sug'oriladigan tuproqlarning tarkibidagi gumus va
ozuqa elementlar miqdori**

Gorizont t (sm)	Gumus (%)	Umumi y azot (%)	Fosfor		Kaliy		CO ₂ (%)	C:N
			%	mg/kg	%	mg/kg		
Voha o'tloqi-allyuvial tuproqlar								
0-25	1,19	0,098	0,205	17	0,843	176,7	6,55	7,0
25-50	0,97	0,082	0,185	15	0,723	120,5	6,55	6,8
50-76	0,78	0,069	0,09	12	0,602	144,6	8,24	6,6
76-112	0,62	0,058	0,06	5	0,482	72,3	8,76	6,2
NSR05	0,029	0,0023	0,005 7	1,22	0,038	7,98	0,056	
R%	1,5	1,3	1,9	3,2	1,3	2,2	0,4	

Voha o'tloqi-allyuvial tuproqlarida gumus zahirasi 0-25 sm qatlamida sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari biroz kamroq ko'rsatkichga ega bo'lib 45,30 t/gani, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda esa 50,01 t/gani tashkil etadi. Voha o'tloqi-allyuvial tuproqlarida gumusli profil agroirrigatsion qatlam chuqurligi bilan bog'liqlikda uchraydi va 0-100 sm qatlamda voha o'tloqi-allyuvial tuproqlarida 64,90 t/gani tashkil etadi. O'rganilgan hudud tuproqlari cho'l zonasida tarqalganligi va ekstraarid iqlim sharoitlariga ega bo'lganligi sababli organik moddalar intensiv mineralizatsiyaga uchraydi va uning natijasida shakllangan azotning mineral formasi ko'p yillik sug'orish jarayonlari ta'sirida pastki qatlamlariga yuvilib ketadi hamda S:N nisbati kesma bo'yicha yuqori gorizontlaridan quyi gorizontlariga ko'ra kamayib boradi.

Raps (**lot. Brassica napus**) qimmatbaho moyli va yem-xashak ekinidir. Oziq-ovqat va yem-xashak sifatlari bo'yicha u ko'plab qishloq xo'jaligi ekinlaridan sezilarli darajada oshib ketadi. Raps urug'larida 40-45 foiz moy va 21-33 foiz oqsil mavjud. Uning tarkibidagi moy va oqsillar juda katta ozuqaviy ahamiyatga ega. Raps moyi to'yinmagan kislotalarni (olein, linolen, linolein) o'z ichiga olgan yuqori kaloriyali ega zaytun moyiga o'xshaydi. Neft kimyosi va xalq xo'jaligining boshqa ko'plab tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

Shuningdek, Raps o'simligi ertangi asalarichilik o'simligi sifatida katta qiziqish uyg'otadi. Ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy sharoitida raps ekinidan asalning 50 foizigacha tovar zahirasini olish mumkin. Raps urug'lari hosildorligining ortishi ekinning ekish muddatlari va asalarining changlantirishiga bog'liq bo'ladi. Raps donli ekinlar uchun yaxshi o'tmishdosh ekin bo'lib, almashlab ekishda keyingi ekinlar uchun qulay agrotexnik shart-sharoitlar yaratadi, tuproq strukturasi yaxshilaydi va tuproq unumdorligini oshiradi. Har gektarda klevor o'simligiga qaraganda 1,5-2 baravar ko'p ildiz qoldiqlarini qoldiradi. Ildiz qoldiqlari tarkibidagi oziqa moddalar miqdori 15 tonna go'ngga teng.

Rapsning «Tavrion» RS1 navining tavsifi. Umum Rossiya Federal ilmiy markazi V.S. Pustovoy nomidagi moyli ekinlar ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan.

1000 ta donining vazni: 3,5-3,9 g.

Hosildorligi o'rtacha: Ma'lumotlariga ko'ra – urug'lik uchun ekilganda hosildorligi 25-32 ts/ga, yashil massa hosildorligi 300-350 ts/ga. Rossiyaning Volga-Vyatka viloyatida davlat nav sinovlari natijalariga ko'ra, o'rtacha urug'lik hosildorligi gektariga 12,8 tsentner, quruq moddalar 38,2 tsentner; SHimoliy Kavkaz mintaqasida o'rtacha urug'lik hosili 11,8 ts/ga, quruq moddasi 25,1 ts/ga. Maksimal hosildorligi 33 ts/ga

Vegetatsiya davri: Urug'lik uchun yetishtirilganda 80-103 kun, yashil massasi uchun 32-62 kun. To'kilishga qarshiligi 3,0-5 ball.

Navning asosiy xususiyatlari: Bahorgi Rapsning «Tavrion» RS1 navi yuqori mahsuldor, stressga chidamli, ertapishar navdir. Turli tuproq va iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan. Urug' tarkibidagi yog' miqdori 44,9-49,1%, Glyukozinolat miqdori - 13-14 mkmol/g. SHuningdek, «Tavrion» RS1 navini yetishtirish agrotexnikning o'ziga xos xususiyatlari biri: Kechki bahorgi muddatlarda ekilganda gullash qobiliyati juda kuchli. Texnika yordamida yig'ib olish imkoniyati mavjud.



Rasm-1. Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Buxoro ilmiy tajriba stantsiyasi 30.03.2022 yilda ekilgan Bahorgi Rapsning «Tavrion» RS1 navining (15.04.2022 yil) holati.

Ma'lumki, Buxoro viloyati tuproqlarining 90% ga yaqini turli darajada sho'rlangan sho'rlanish natijasida olina'etgan daromad yilda–yilga kamayib, tuproq degradatsiyasi oshib borayotganligi sir emas. Biroq, nisbatan sho'rga bardoshli, haridorgir, eksportbop ekin turlarini ekish va ulardan yuqori mahsulot yetishtirish orqali ushbu yerlardan ham samarali foydalanish mumkin. Raps aynan shunday ekin turlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar natijasida ilk bor Buxoro viloyati turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlari sharoitida bahorgi va kuzgi Raps navlarining yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqiladi, serhosil, yirik urug'li, urug'i tarkibida moy miqdori yuqori bo'lgan navlarning urug'chiligi yo'lga qo'yiladi va ishlab chiqarishga joriy qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gafurova L, Sharipov O, Makhkamova D 2020 Enzymatic activity of irrigated meadow soils of the Bukhara oasis.

2. O'simlikshunoslik darslik Toshkent-Mehnat-2000 yil., 246-247 bet
3. Raps i surepitsa: virashivaniye, uborka, ispolzovaniye — Diter Shpaar. **Izdatelstvo:** Zerno 2012 g.
4. [.https://www.apk-kolos.ru/raps-jarovoi/c1000.html](https://www.apk-kolos.ru/raps-jarovoi/c1000.html)
5. <https://agrovesti.net>
6. <http://rapool.kz/technology>

UO'K 633.6

O'ZBEKISTONDA EKILAYOTGAN QAND LAVLAGI NAVLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH.

ИЗУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ СОРТОВ САХАРНОЙ СВЕКЛЫ, ВЫРАЩИВАЕМЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ

Faxriddin Miraxmedov-katta o'qituvchi

Qo'shaqov N. Hakimov Sh.Sh. -magistrant

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestriga 18 ta qand lavlagi navlari kiritilgan bo'lib shundan 3 tasi o'zbek seleksionerlari tomonidan yaratilgan. Biz ushbu navlarni muxim biologik xususiyatlari xamda tashqi ekologik omillarga bo'lgan talabini yoritishni asosiy maqsad qilib oldik.

Аннотация: В Государственный реестр сельскохозяйственных культур, рекомендованных к посеву на территории Республики Узбекистан, включено 18 сортов сахарной свеклы, 3 из которых созданы узбекскими селекционерами. Наша главная цель — выделить важные биологические свойства этих сортов и их требовательность к факторам внешней среды.

Mamlakatimiz dala ekinlari orasida paxta va kungaboqar o'simliklari singari qand lavlagi ham muxim texnik ekin hisoblanadi. Qand lavlagi-nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyoda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yosh madaniy o'simliklar qatoriga kiritiladi. Chunki 19-asrgacha sanoatda shakar faqat shakar qamish o'simligidan olinar edi. yevropada fan texnikani yuksalishi va shakar ishlab chikarishni muqobil variantini izlash zarurati sababli qand lavlagidan shakar ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. 19-asrning oxirlariga kelib O'zbekistonda xam qand lavlagini parvarish qilish qishloq xo'jalik soxasiga kirib keldi. Lekin qand lavlagi navlarini shakar olish maqsadida keng maydonlarga ekish Respublikamiz mustaqil bo'lganidan keyin, 1990-yillar oxirida oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash dasturi asosida yo'lga qo'yildi.

Xozirgi kunda qand lavlagi AQSH, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Germaniya kabi mamlakatlarda katta maydonlarga ekilmoqda. O'zbekistonda asosan Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida yetishtiriladi. Jahon bo'yicha qand lavlagi yalpi ekin maydonlari 6,7 million gektarni tashkil etib, o'rtacha hosildorlik 392 ts/ga, yalpi hosili 263 million tonnaga yetdi.

120.	Umurzakova F.E., Hamzaev A.X., Kungaboqar o'simligining oziq moddalarni o'zlashtirishi va o'g'itlash tizimi.	434
121.	Karimov N.D., Ashurov X. Kungaboqar o'simligining unshudring kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari.	437
122.	Азизов Б.М., Б.А.Исроилов. Действие сроков и способов посева на урожайность гречихи (<i>Fagopyrum Esculentum</i> Moench)	442
123.	Abduqodirova G.Q. Amarant yuqori biomassaga ega oqsilga boy, moyli dorivor o'simlik	447
124.	Abdullaev I.I., Axmedov B.O. Arpa urug'larini ekish muddatlari va me'yorlarini ko'chat qalinligiga ta'siri	451
125.	Abduraxmonov S.O., Qodirov D.A. Kungaboqar o'simligining ko'chat qalinligiga ekish sxemalarining ta'siri	456
126.	Axmedov M.I., Sharipov O.A., Adolatova Sh.J. Buxoro viloyati sug'oriladigan turli darajada sho'rlangan tuproqlarida rapsning bahorgi navlarini yetishtirish agrotexnologiyasini o'rganish.	460
127.	Miraxmedov F., Qo'shaqov N., Hakimov Sh.Sh. O'zbekistonda ekilayotgan qand lavlagi navlarining biologik hususiyatlarini o'rganish.	464
128.	Орипов Ш.Х., Аманов Ф.Б., Паянов А.Б. Некоторые результаты исследований масличных культур в условиях богары Узбекистана	467
129.	Xamdamova B., Xabibullaev X. Takroriy ekin sifatida o'stirilgan makkajo'xoridan yuqori don hosildorligi.	472
130.	Parpiyev G'.G'. Mineral o'g'itlarni makkajo'xori va soyani qo'shib ekishdagi hosildorligiga ta'siri	474
131.	Isakov K.T., Xoldorov A.A., Qo'shmatov B.S. Bedaning lalmikor maydonlarda o'rganilgan yuqori hosilli nav va tizmalar	478
132.	Вахобова М.А., Хатамов Б.А. Эффективное использование комбайнов для уборки масличных культур.	481
133.	Urunbaeva Sh.G., Ashurov Q.K. Takroriy yekinlar oziqaligiga mineral o'g'itlar me'yorlarini ta'siri.	486
134.	Azizov K., Rafikov I.E., Yangiboyev O.N. Global iqlim o'zgarishlari sharoitida Orolbo'yi hududlariga mos ozuqa ekinlarini yetishtirish istiqbollari	488
135.	Tog'aeva S.S., Raxmonova M.U. Moyli kungaboqardan yuqori hosil yetishtirish texnologiyasi	491
136.	Yaxyoqulova M.A., Xalilov N.A. Och tusli bo'z tuproq sharoitida xar xil meyordagi kaliyli o'g'itlarning yasmiqni o'sib rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri.	496
137.	Abduraxmonov S.O., Nazirova G.O. Makkajo'xori nav va duragaylarining don hosildorligi	498
138.	Usmanov S.P., Nurdinov N.Ya., Qodiraliyev E. Makkajo'xori parvonasi bioyekologiyasi va qarshi kurash choralari	501